

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14041856>

JURNALISTIKAGA JANR KERAKMI?

Ochilova Madinaxon Nodirjon qizi.

FarDU Jurnalistika mutaxassisiligi 1-kurs magistranti.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jurnalistika sohasidagi janrlar va ularning ishlatilish o‘rni, umumiy va xususiy jihatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** yangiliklar jurnalistikasi, tahliliy jurnalistika, publitsistika, reportaj, ocherk, feletonlar, pamflet.*

***Annotation.** This article talks about genres in the field of journalism and their place of use, general and specific aspects.*

***Key Words:** news journalism, analytical journalism, journalism, reporting, essays, feuilletons, pamphlets.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о жанрах в сфере журналистики и их месте использования, общих и специфических аспектах.*

***Ключевые слова:** новостная журналистика, аналитическая журналистика, публицистика, репортажи, очерки, фельетоны, брошюры.*

O‘zbek jurnalistikasida janrlar qanday tasniflanadi? Umuman, ularning o‘rni va ahamiyati qanday? Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgunga qadar sovet jurnalistikasi nazariyasi va amaliyoti ta’siri ostida bo‘lgani uchun sho‘ro matbuotida qanday janrlar qo‘llanilgan bo‘lsa, o‘zbek matbuotiga ularni shu holicha olish ko‘zga tashlanadi. Ammo mamlakat mustaqil bo‘lgandan keyin jurnalistika nazariyasi va amaliyotida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Natijada publitsistika janrlari

guruhlarini belgilashda jahon jurnalistikasi tajribalaridan kelib chiqib yondashish qaror topdi. Shu asnoda o'zbek milliy jurnalistikasi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ilk marta publitsistika janrlari guruhlarini belgilashda nisbatan yangicha yo'l tutildi. Jurnalistika turlarini tasnif etishda yangiliklar jurnalistikasi, tahliliy jurnalistika, sharhlash jurnalistikasi, badiiy-publitsistik mahorat, jurnalist surishtiruvi, degan atamalar yuzaga keldi. Ilgari xorijiy matbuotda keng qo'llanilgan esse janri ham O'zbekiston jurnalistikasidan joy oldi. Endi jahon jurnalistikasi nazariyasi va amaliyoti tajribalaridan ham foydalanila boshlandi. Pirovardida O'zbekistonda milliy va xalqaro jurnalistika nazariyasi va amaliyotiga xos ilmiy qarashlar yuzaga keldi.

Janr tushunchasi barcha davrlarda ham odamlarning axborotga qiziqishlari, uni qabul qilishga bo'lgan ehtiyoj, munosabatlariga qarab yuzaga keldi va rivojlandi. U jurnalistika paydo bo'lgandan beri o'z davriga qarab rivojlanadigan, ijtimoiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib boradigan tarixiy kategoriyadir. Buni Sankt-Peterburg universiteti professori G.Korkonosenko shunday izohlaydi: "Ishbilarmonlarning o'zaro munosabatlari gazeta sahifalarida "hisobot" janrini paydo qildi. Sir tutishga bo'lgan ehtiyoj tufayli xat janri yuzaga keldi. 1800 yilda "Jurnal de Debi" deb nomlangan fransuz gazetasi inqilobdan keyin odamlarni o'ziga ko'proq jalb etish va demokratik matbuotning ko'rinishi sifatida taassurot uyg'otish uchun feletonni o'ylab topdi. Shu tariqa barcha janrlar tarixan oddiylikdan murakkablikka, oddiy xabardan tortib tahliliy maqolagacha rivojlana bordi." Ta'kidlash o'rinliki, har qanday jurnalistik asarni yaratish tegishli ma'lumotlarni yig'ishdan boshlanadi. Ma'lumot olishning keng tarqalgan usullaridan biri esa muloqotdir. Garchand muloqot kommunikatsiya turi sifatida axborot almashishning eng qadimiy usuli bo'lsa-da, u bilan shaklan bir xil bo'lgan intervyu janri boshqa janrlarga nisbatan ancha kech paydo bo'lgan. Bu haqda tadqiqotchi L.Shibaeva shunday yozadi: "Vaholanki, jurnalistikada paydo bo'lgan janrlarning ichida intervyu eng birinchilardan bo'lishi kerak edi. Axir savol berish har bir insonga bolaligidan odat. Qolaversa, dunyo adabiyotida, antik faylasuflardan tortib dramaturglargacha juda katta dialoglar zaxirasini qoldirgan. Shunga qaramay, bu janr XIX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Buning ham o'ziga yarasha sababi, talabi va

mezoni bor”. “Hurriyat” gazetasining 2007 yil 21-mart sonida jurnalist Ibrohim Normatov “Jurnalistikada mahorat kerakmi yoxud unutilayotgan janrlar xususida” sarlavhali maqolasida matbuotda janr tushunchasining yo‘qolayotganligi, jurnallarda, ayniqsa, gazetalarda janrlarning qashshoqlashishi oqibatida bir xillik yuzaga kelayotganligi haqida so‘z yuritgan edi. Shuningdek, muallif eng ta’sirchan va hozirjavob janr reportaj, ocherk, feletonlar kamayib ketayotganligini, hattoki, ayrimlar pamflet nimaligini bilmasligini, qolaversa, nashrlarning ko‘pligi ham saviya jihatdan gazetarlar mazmunini no‘noqlashishiga - bir xil qolipga tushib qolayotganiga sabab bo‘lishini ta’kidlagan.¹

Jurnalistning ijod mahorati bilan bog‘liq bilimlar uchta fan - yangiliklar jurnalistikasi, tahliliy jurnalistika hamda publitsistika tarkibida o‘rgatiladigan bo‘ldi. Endi ushbu fanlar tarkibida qanday janrlar o‘rganilishiga e’tibor qaratamiz. Yangiliklar jurnalistikasi tarkibiga axborot, xabar, yangilik, hisobot, intervyu, reportaj singari janrlar kiradi. Bu janrlar asosan, jamiyatda sodir bo‘lgan va bo‘lishi taxmin etilgan hayotiy voqealar, hodisalar, jarayonlar haqida xabar berishga qaratiladi. Ularning spetsifik imkoniyati voqelikni aks ettirish va zarur hollarda mavjud faktlarni qismlarga ajratib yetkazish bilan belgilanadi. Agar axborot yoki yangilik janri orqali voqea sodir bo‘lganligi haqida xabar berilsa, reportajda voqeani sodir bo‘lish jarayoni o‘sha joyning o‘zida jurnalist ishtirokida yoritiladi. Intervyu sodir bo‘lgan voqea kimningdir qarashi yoki fikri orqali ifoda etiladi.

Tahliliy jurnalistika axborot yetkazish bilan uni tahlil orqali jamoatchilikka tushuntirishni maqsad qiladi. Masalan, korrespondentsiyaning asosiy axboriy vazifasi “tushuntirish” bo‘lib, o‘tgan voqelikni atroflicha yoritish ustuvorlik qiladi. Uning vazifasi “nimaga?”, “nima sababdan?” degan savollarga javob berishdir. Maqola voqelikning biror bir jihatini, qismini, u bilan bog‘liq muammo, masalaning yechimini ochib berishga qaratilib, “nima qilish kerak?” degan savolga javob berishni ko‘zda tutadi. Taqriz aynan voqelikning o‘zini emas, balki voqelik jarayonida mavjud ob’ektni tahlil qilish orqali unga baho beradi. Jurnalist surishtiruvi esa muayyan

¹ “Hurriyat” gazetasining 2007 yil 21-mart soni Ibrohim Normatov.

voqelik yuzasidan haqiqat sir tutgan holatlarda adolatni qaror toptirish uchun olib boriladi. Sharh janrida muayyan voqea, vaziyat, jarayon yuzasidan olib borilgan tahlilning hayotiy realliklarga qanchalik mos kelishi, mantiqiy qarashlarning asosligi ko'rsatib beriladi. Mazkur janrlarni birlashtiruvchi asos esa bu – tahlil va tadqiqotning mavjudligi bilan belgilanadi.

Publitsistika janrlariga ocherk, esse, feleton, pamflet, xat, kichik hajviy janrlar kirib, unda ijtimoiy hayotni obraz va obrazlilik, xarakterlar yaratish, tipiklashtirish, shuningdek, fabula, kompozitsion qurilish, konflikt va yechim singari unsurlaridan foydalangan holda jurnalistik asar yozish maqsad qilinadi. Bu janrlar orqali axborot iste'molchilariga emotsional ta'sir ko'rsatish ko'zda tutiladi. Bundan ko'zlangan maqsad publitsistikaning mazkur janrlarida jamoatchilikka yetkazmoqchi bo'lgan fikr shunchaki axborot tarzida berilmasdan, kishilarning tuyg'ulari, hislariga ta'sir ko'rsatish orqali uning samaradorligini oshirishdir. Janr tushunchasi doimo o'zgarib va rivojlanib borganligi bois uning tugal nazariyasi ishlab chiqilgani yo'q. Ayniqsa, internetning OAV sifatida tan olinishi, bu masalani birmuncha chigallashtirdi. Boisi, internetdagi foydalanuvchilar faqat axborot iste'molchilari emas, balki axborot manbalari, axborotni yetkazuvchilar ham hisoblanadi. Shuning uchun butunjahon "o'rgimchak to'ri"da janrning ahamiyati birmuncha pasayadi. Ammo bu butunlay yo'qoldi, degani emas. Ijtimoiy tarmoqlarda, rasmiy saytlarda ham jurnalistikaning boshqa turlarida uchraydigan janrlar mavjud. Faqat ularda axboriy janrlar yetakchilik qiladi. Sharh, intervyu va maqolalar keyingi o'rinlarni egallaydi. Bundan tashqari, internet OAVda janrlar integratsiyasi, ya'ni o'zaro ta'siri, aralashuvini ko'proq kuzatish mumkin. Shunday qilib jurnalistikada janrning o'rni muhim va uni soha mutaxassislari tomonidan o'rganishga ehtiyoj mavjud.